



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI  
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июл

VI-48-96-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi  
“O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan  
sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6108-sonli  
Farmoniga asosan umumta'lim muassasalari direktorlarining o'quv yili  
yakuni bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga uch yillik  
dasturning ijrosi yuzasidan hisoboti va uning natijasiga ko'ra faoliyatiga  
baho berish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi  
“O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan  
sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6108-sonli  
Farmoniga asosan umumta'lim muassasasi direktorlari yil yakuni bo'yicha  
xalq deputatlari tuman Kengashlari va jamoatchilik vakillariga uch yillik  
dasturning ijrosi va ularning faoliyati bo'yicha hisoboti yuzasidan bildirilgan  
fikr-mulohazalarni e'tiborga olib, mazkur masalaning tuman Kengashi  
Ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari  
bo'yicha doimiy komissiyasi tomonidan muhokama qilinganligini e'tiborga  
olib, xalq deputatlari tuman Kengashi,

**QAROR QILADI:**

1. Xalq ta'lifi bo'limiga qarashli bo'lgan 13, 25, 57, 7, 71, 20, 32, 17,  
72-sonli umumta'lim maktablari direktorlarining 2021-2022-o'quv yili  
yakuni bo'yich uch yillik dasturlari asosida amalga oshirilgan ishlari  
yuzasidan hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kengash qarori bilan lavozimga tayinlangan umumta'lim  
muassasalari direktorining belgilangan uch yillik dasturi ijrosi yuzasidan 13,

25, 57, 7, 71, 20, 32, 17, 72-sonli umumta’lim maktablari direktorlarining hisobotiga asosan amalga oshirilgan ishlari yetarli emas deb topilsin.

3. Tuman xalq ta’limi bo‘limi (Z.Xurramov)ga faoliyati bo‘yicha “qizil hudud”da turgan (13-, 17-, 53-, 60-, 68-) maktablar faoliyatini yaxshilash bo‘yicha har tomonlama uslubiy yordam ko‘rsatish;

maktab rahbarlariga ko‘maklashuvchi tajribaga ega metodist va salohiyatli maktablar direktorlarini biriktirish;

maktab rahbarlarining uch yillik dasturlari ijrosini tanqidiy muhokama etib borish topshirilsin.

4. Maktabda o‘tgan davr mobaynida ta’lim sifatini oshirish borasida belgilangan uch yillik dasturi ijrosi bo‘yicha faoliyati qoniqali deb topilgan 13, 25, 57, 7, 71, 20, 32, 17, 72-sonli umumta’lim maktablari direktorlariga uch yillik dasturdagi vazifalarni belgilangan muddatda to‘liq amalga oshirilishini ta’minalash;

maktablarda ta’lim sifatini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘sishimcha tadbirlar belgilash va amalga oshirish;

belgilangan dasturi va qo‘sishimcha tadbirlar ijrosi yuzasidan yil yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari (U.Choriyev)ga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan e’lon qilingan ta’lim muassalarining Milliy reyting natijalari tahliliga ko‘ra, tumandagi reyting natijasi past bo‘lgan umumiyl o‘rta ta’lim maktablari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari yuzasidan har chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borish topshirilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D. Nazarov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Xalq deputatlari tuman Kengashining mazkur qarori ma’lumot va

ijro uchun Surxondaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasiga yuborilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi  
raisi**



**Xudoyberganov B.X**